

**O‘ZBEK TILINING TURKIYA RESPUBLIKASI  
UNIVERSITETLARIDA O‘QITILISHI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

**Shaxlo Shukurlaevna Yuldasheva,**  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
professori, pedagogika fanlari nomzodi*  
[shahlondpi@gmail.com](mailto:shahlondpi@gmail.com).  
ORCID ID: 0000-0001-9797-8635

**Abstrakt.** Maqolada o‘zbek tilini xorijda o‘qitishning mazmuni, o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi va o‘quv jarayonining metodik ta‘minlanishi Anqara va Istanbul universitetlari misolida yoritib berilgan. O‘zbek tilining Turkiya universitetlarida majburiy va tanlov fan sifatida o‘qitilishi, qardosh tillar vakillariga o‘zbek tilini o‘rgatishda o‘ziga xos yondashuvlar taqozo qilinayotganligi haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili, o‘zbek adabiyoti, qardosh tillar, o‘zbek tilini o‘qitish, bakalavr dasturi, magistratura.

**Kirish**

Respublikamizning 100 ga yaqin oliy o‘quv yurtida O‘zbek tili va adabiyoti kafedralari tashkil etilib<sup>1</sup> o‘zbek tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Soha uchun malakali mutaxassislar mamlakatimiz universitet va institutlarining 7 ta bakalavr ta‘lim yo‘nalishi va 6 ta magistratura mutaxassisliklarida<sup>2</sup>, shu bilan birgalikda xorijda ham tayyorlanayotganligini alohida e‘tirof etish zarur. Sobiq ittifoq davrida O‘zbek tili Moskva va Sankt-Peterburg universitetlaridagina o‘qitilib kelingan bo‘lsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach jahonning nufuzli universitetlarining nafaqat bakalavr yo‘nalishlari, balki magistratura mutaxassisliklarida ham o‘qitilmoqda. O‘zbek tilining qardosh bo‘lmagan til vakillariga o‘qitilishi bo‘yicha izlanishlar miqyosi kengaytirilib doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilinmoqda<sup>3</sup>. Binobarin, xorijda qardosh til vakillariga o‘zbek tilini o‘qitish borasida ham yechimini kutib yurgan muammolar mavjudki, bu ham muayyan tadqiqotlarni taqozo qilmoqda. Maqolamiz maqsadi Turkiya Respublikasi universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitishda to‘plangan tajribalarni o‘rganish va bu jarayonning metodik qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha muhim yo‘nalishlarni belgilab olishdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishish tadqiqot muammolarini izchil hal qilish, ya‘ni filolog o‘qituvchilar

<sup>1</sup> Жамолдинова О. Олий таълимда давлат тили: унинг ўқитилиши, нуфузини ошириш, давлат тилида иш юритиш. Ўзбекистонда олий таълим / 2022 / №4. 8-14 Б.

<sup>2</sup> Жамолдинова О. Олий таълимда давлат тили: унинг ўқитилиши, нуфузини ошириш, давлат тилида иш юритиш. Ўзбекистонда олий таълим / 2022 / №4. 8-14 Б.

<sup>3</sup> Qorayeva B. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda nutq madaniyatini shakllantirishning nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2021. –130 b.

duch keladigan kasbiy muammolarni aniqlash, tabiiy bo‘lmagan til muhitida o‘zbek tilini o‘qitish mazmunini yaratish kabi vazifalarga uzviy bog‘lanadi.

O‘zbek tilining Turkiya universitetlarida o‘qitilishini o‘rganish jarayonida quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratildi: Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonini kuzatish, o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish; Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitishda o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlanishini o‘rganish; Xorijda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligini, yutuqlar, ilg‘or tajribalar va ularning omillarini aniqlash; Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini samarali o‘qitishga to‘siq bo‘layotgan muammolarni aniqlash.

### **Materiallar va metodlar**

Tadqiqot davomida Turkiya Respublikasi universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish bilan shug‘ullanayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari bilan suhbatlar va so‘rovnomalar, shuningdek, fan o‘qituvchilarining va maqola muallifining kasbiy tajribalarini umumlashtirish, tadqiqot muammosi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi. Suhbat va so‘rovnomalarda 8 nafar fan o‘qituvchilari hamda 100dan ortiq talabalar ishtirok etishdi. 1500 sahifadan ortiq ilmiy adabiyotlar va o‘quv me‘yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

### **Asosiy qism**

Jahon hamjamiyatiga a‘zo mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda bakalavrlar va magistrlar tayyorlash tizimiga almashuv dasturlari tatbiq qilinmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining 30 dan ortiq filiallari faoliyat yuritayotganligi, mamlakatimizning davlat va nodavlat ta‘lim muassasalari va dunyoning yetakchi universitetlari o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolanib, akademik va talaba almashuv yo‘lga qo‘yilayotganligi, professor-o‘qituvchilarning xorijda malaka oshirish va stajirovkalarini tashkil qilinayotganligi o‘z samarasini bermoqda. Ta‘limda almashuv dasturlarini ajdodlarimiz keng va samarali qo‘llaganligini tarix zarvaraqlaridan yaqqol ko‘rishimiz mumkin, Ulug‘bek o‘z madrasasiga dunyoning bir qator o‘lkalaridan allomalar jalb qilgan bo‘lsa, XX asr oxirida Xeva xonligida Muhammad Rahimxon Feruz, Asfandiyor davrida Qozondan muallimlar jalb qilinganligi yaxshi ma‘lum. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi talabalarining Qrim va Turkiyaga jo‘natilishi; Qozon, Turkiya, Bog‘chasaroydan darsliklar, turli o‘quv kitoblari olish, muallimlar jalb qilish tarixini eslash kifoya (U.Dolimov<sup>4</sup>). Ular negizida Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitratlar tomonidan yaratilgan darsliklar, ona tili va adabiyotini o‘qitish bo‘yicha zamonaviy

<sup>4</sup> Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. ped. fan. dok. ... dis. -Toshkent, 2008.



pedagogika fanining ham nazariy, ham amaliy masalalarini yorituvchi ilmiy asarlar dunyoga kelgan. Bu an’ana davrimizda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbek tilining tashqi muhitda, xususan, Turkiyada o‘qitilishi borasidagi tajribalarni aniqlashtirish o‘zbek tili o‘qitish metodikasi uchun qimmatli materiallar taqdim qilishi mumkin. O‘zbek tilini xorijda o‘qitish metodikasi unchalik boy an’anaga ega bo‘lmasa ham o‘zbek tilining qardosh bo‘lgan va qardosh bo‘lmagan til vakillariga o‘qitilishi bo‘yicha metodikani takomillashtirish borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Binobarin, xorijdagi filolog hamkasblarga metodik qiyinchiliklarni bartaraf qilishda samarali yordam ko‘rsatish o‘ta dolzarb masala sifatida kun tartibida turibdi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bunday metodik yordam barchaga bir xil bo‘lishi mumkin emas. MDH mamlakatlarida yoki Amerika qit’asida, Yevropa mamlakatlarida yoki Osiyo mamlakatlarida o‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xosliklari bo‘lishi tabiiy hol. Chunonchi, hududiy, lingvistik, madaniy o‘ziga xosliklarga ko‘ra o‘qituvchi va talabalar duch keladigan muammolar aniqlanishi va mos ta’lim texnologiyalari, ta’lim vositalari ishlab chiqilib metodik ta’minot yaratilishi o‘zbek tilini o‘qitish samaradorligining muhim omillaridir.

O‘rganishlar va tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zbek tili Turkiya Respublikasida faqat oliy ta’lim muassasalari, ya’ni universitetlardagina majburiy va tanlov fan sifatida turli yoshdagi talabalar tomonidan o‘rganiladi. Mamlakatda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili o‘qitilmaydi, ya’ni shu hududda yashayotgan va ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining farzandlari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili sifatida turk tilini o‘rganishadi.

Turkiya Respublikasida o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha 30 yildan ortiq tajriba mavjudligini ta’kidlash zarur. Qardosh turkiy davlatning 18 ta universitetida: Afyon Kocatepe, Pamukkale, Sivas Jumhuriyat, Ankara Haji Bayram Veli, Mug‘la Jitki Kochman, Nevshehir Haji Bektash Veli, Nig‘de O‘mer Halisdemir, Ardahan, Ataturk, Bartin, Kastamonu, Kirklareli, Ushak, Dijle, Firat, Hajettepe, Istanbul, Ankara universitetlarida Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar (Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları) bo‘limlari mavjud<sup>5</sup>. Ularda 4 yillik bakalavr ta’limi (18 ta universitetda) va 2 yillik magistratura dasturi (15 ta universitetda), shuningdek, doktorantura dasturi (6 ta universitetda) bo‘yicha ta’lim beriladi. Bo‘limda tahsil oladigan talabalar zamonaviy turkiy tillar va ularning adabiyotlarining rivojlanish tarixini turk tili til hodisalarining rivojlanishiga qiyosan o‘rganishadi. Shuningdek, turkiy tillarning

<sup>5</sup><https://yokatlas.yok.gov.tr/lisans-bolum.php?b=10037;>

<https://www.kariyer.net/bolumler/cagdas%2Bturk%2Blehceleri%2Bve%2Bedebyatlari/nedir;>

[https://tr.wikipedia.org/wiki/Çağdaş\\_Türk\\_Lehçeleri\\_ve\\_Edebiyatları\\_\(Türkiye\)](https://tr.wikipedia.org/wiki/Çağdaş_Türk_Lehçeleri_ve_Edebiyatları_(Türkiye))

o‘zaro aloqasi hamda boshqa dunyo tillari bilan aloqasini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganadilar. Bo‘lim 2 ta muhim maqsadni nazarda tutadi:

1. Soha mutaxassislarida boshlang‘ich bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va ularni oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limga tayyorlash.

2. Boshqa turkiy tillar va ularning adabiyotlarini qiyosiy tadqiq qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Bo‘lim bitiruvchilariga turkolog ixtisosligi beriladi, shuningdek pedagogik tayyorgarlikdan o‘tishsa, turk tili fani o‘qituvchilari bo‘lib faoliyat yurita oladilar. Shuningdek, matbuot va ommaviy axborot vositalarida muharrir, universitetlarda ilmiy xodim, o‘qituvchi lavozimlarida, Turkiy tillarda ish yuritiladigan turli kompaniyalarda xizmat qilishlari mumkin. Bo‘limning ta‘lim tili turk tili sanaladi.

Darhaqiqat, Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitishga asosiy e‘tibor qaratilayotgan yo‘nalish bu zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo‘limlaridir. Bu bo‘limning eng muhim farqlanuvchi jihati shundaki, bo‘limda deyarli turkiy tillarni tanlov fanlar sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yilganligidir. Guruhlarda ta‘lim oluvchilar turk, uyg‘ur, o‘zbek, turkman, qirg‘iz, qozoq, ozorbayjon, arab, malayya, xitoy kabi turli millat va elatlarga mansub bo‘lib, fan o‘qituvchilaridan ularning o‘quv-kognitiv faoliyatini, madaniy va ijtimoiy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda yondashish, moslashuvchan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish taqozo qilinadi. Ikkinchi muhim jihat o‘quv dasturlarida asosan ko‘p hajmda o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligiga oid materiallarning o‘rin olganligidir.

**Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni.** Anqara va Istanbul universitetlarini mustasno qilganda qardosh turkiy davlatning aksariyat universitetlarida o‘zbek tili 1-2 semestrda o‘qitiladi. Anqara universiteti (1992-yildan buyon)<sup>6</sup> va Istanbul universiteti (1995-yildan buyon)ning Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limida ozorbayjon, turkman, qozoq, qirg‘iz, xakas, yoqut, tuva kabi turkiy tillar qatorida bakalavr, magistratura dasturlari bo‘yicha, shuningdek o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantura tadqiqotchilari o‘zbek tili va adabiyotini 1-bosqichdanoq o‘rganishni boshlashadi. Anqara universitetida xuddi O‘zbekistondagi filologik yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr dasturida 8 semestr davomida o‘qitiladi. Shuningdek, mazkur universitet Turkiyaning boshqa universitetlarida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda ham asosiy tayanch ta‘lim muassasasiga aylangan. Mazkur universitetda professor I.Qo‘chqortoev faoliyat

<sup>6</sup> Aynur O‘z O‘zjon. Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish metodlari. //Globallashuv davrida o‘zbek tilining mavqei. Xalqaro konferensiya to‘plami (elektron nashr). – Nukus, 2020. – 17 – 20 b.



yuritgan. Uzoq yillar davomida o‘zbek tili, o‘zbek adabiyotiga tegishli dars mashg‘ulotlari fan doktori, professor Aynur O‘z O‘zjon va fan doktori, professor Ayhan Chelikbay tomonidan muvaffaqiyatli olib borilmoqda. Istanbul universitetida Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi 1995-yildan faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa ham, asosan 2011-yildan bakalavr dasturi bo‘yicha talabalar tahsil olishmoqda. 2021-yildan buyon ham bakalavr va ham magistratura dasturi bo‘yicha talabalar qabul qilinmoqda. Bo‘limda zamonaviy turkiy tillar qatorida o‘zbek tili ham o‘rgatilmoqda. Bo‘limda dastlabki yillarda fan doktori, dotsent Ersin Teres, fan doktori, yordamchi dotsent Aysha Yilmazlar dars berishgan. 2014-yildan buyon fan doktori, dotsent Reyila Kashgarli va fan doktori, yordamchi dotsent Ma‘mura Mamatqulova (2019-yildan) o‘zbek tili va o‘zbek adabiyotidan dars berishmoqda. Bo‘limda bakalavr dasturida o‘zbek va uyg‘ur tillari qiyoslab o‘rganiladi. Magistratura dasturida o‘zbek tili darslari (o‘zbekcha yozuv darslari) 1-semestrda, o‘zbek adabiyoti 2-semestrda o‘qitiladi.

Anqara va Istanbul universitetlarining Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi va O‘zbekiston OTMLari o‘rtasidagi hamkorlik natijasida professor-o‘qituvchilarning malaka oshirish va stajirovkalari tashkil qilinayotganligi (p.f.n., professor Sh.Sh.Yuldasheva, f.f.n., dotsent S.G.Matyakupov, PhD, dotsent G.A.Yusupova katta o‘qituvchi D.S.Kabulova (Nukus DPI), f.f.d., professor M.M.Qurbonova (O‘zMU), f.f.n., dotsent M.Saparniyazova, f.f.n., dotsent I.Azimov, PhD dotsent S.Bozorova (ToshDO‘TAU), PhD, dotsent X.Imamova (ToshDSHU)), ular tomonidan offlayn va onlayn shaklda ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar tashkil qilinayotganligini alohida ta’kidlash lozim.

### **O‘zbek tilidan o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanishning mavjud holati.**

Har ikki universitetda ham o‘zbek tili mashg‘ulotlari bosma adabiyotlar, shu bilan birgalikda bu adabiyotlarning elektron variantlari, tarqatma materiallar asosida tashkil qilinadi. Auditoriyalar raqamli ta’lim vositalari bilan yetarli darajada ta’minlangan. Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonining o‘quv adabiyotlar bilan ta’minlanishidagi o‘ziga xoslik shundaki, har bir o‘qituvchi fan uchun zarur adabiyotni o‘zi tanlaydi va belgilaydi. Professor-o‘qituvchilarning fan dasturlarini o‘rganish va darslarni kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, asosan O‘zbekistonda chop etilgan fonetik, leksik, grammatik sathni o‘rganishga mo‘ljallangan ilmiy adabiyotlarga tayaniladi. Universitet, fakultet kutubxonalarida bu adabiyotlar yetarli darajada. Shu bilan birgalikda har bir universitetda faoliyat olib boruvchi o‘zbek tili mashg‘ulotlarini tashkil etayotgan professor-o‘qituvchilar tomonidan Turkiya ta’lim tizimiga adaptatsiya qilingan o‘quv adabiyotlarini yaratishda ham muayyan yutuqlar

mavjud<sup>7</sup>. Bu adabiyotlar bo‘yicha O‘zbekistonda<sup>8</sup> va Turkiyada<sup>9</sup> bibliografik ma‘lumotlar jamlangan maqolalar ham e‘lon qilingan. 2022-yilgacha bo‘lgan bibliografik ko‘rsatkichda 7 ta lug‘at, 42 ta o‘quv adabiyoti, 24 ta doktorlik dissertatsiyasi, 173 ta magistrlik dissertatsiyasi haqida ma‘lumot keltirilgan. Bu o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha adabiyotlar yetarli darajada degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi.

O‘zbek tili mashg‘ulotlari amaliy xarakterda o‘rganilishi tufayli “Özbekçe Öğreniyoruz”<sup>10</sup>, “Özbek Türkçesi Gramer-Metin-Sözlük”<sup>11</sup>, “Modern Özbek Türkçesi (Giriş-Özbekistan-Dil Tarihi-Metinler-Gramer-Sözlük)”<sup>12</sup> kabi darsliklardan foydalaniladi. Turkiya Respublikalari universitetlarida o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish bo‘yicha bir qator o‘quv adabiyotlari Turkiya va O‘zbekiston olimlari hamkorligida yaratilgan.

**O‘zbek tilini o‘qitish metodikasidagi yutuqlar omillari.** Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitishdagi yutuqlar omili sifatida davlatimizning til siyosati, shu asosda o‘zbek tilini xorijda o‘rgatish ishlarini tizimli olib borish bo‘yicha bajarilayotgan ishlarni ko‘rsatish mumkin. Turkiya universitetlarida o‘zbekistonlik olimlar, tadqiqotchilarning, shu bilan birga ilmiy-tadqiqot, pedagogik faoliyati O‘zbekiston bilan bog‘langan turkiyalik olimlar, doktorantlarning o‘zbek tilini o‘qitish jarayoniga jalb qilinganligi uning samaradorligini ta‘minlovchi eng muhim omillardan biri sanaladi. Turkiya oliy ta‘limida professor-o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar ham xalqaro standartlardan kelib chiqadi. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv, ilmiy faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar ochiqlik, shaffoflik asosida taqdim qilinadi. Buni universitetlarning saytlaridan ham ko‘rish mumkin. Har bir professor-o‘qituvchining sahifasi mavjud bo‘lib, shaxsiy ma‘lumotlar, ma‘lumoti, malaka oshirganligi, doktorlik dissertatsiyalari, ish o‘rni, ilmiy unvonlari, lavozimi, dars beradigan fanlari, ilmiy kengashlardagi faoliyati, ilmiy maqolalari, kitob va kitob boblari, konferensiya to‘plamlaridagi maqolalari, loyihalardagi ishtiroki, ilmiy jurnallardagi faoliyati, konferensiya va simpoziumlardagi ishtiroki kabi ma‘lumotlar joylashtirilgan<sup>13</sup>. Saytlardagi ma‘lumotlar o‘zbek tili ta‘limida faoliyat olib borayotgan aksariyat

<sup>7</sup> Buran, Ahmet, Ercan, Alkaya. Çağdaş Türk lehçeleri. 9.baski: Ankara 2013.

<sup>8</sup> Giray, E. (2019). Türkiye’de Özbek Türkçesi Grameri Üzerine Yapılmış Bilimsel Kitap ve Lisansüstü Çalışmalar (1985-2019). O‘zbek Tili Taraqqiyoti va Xalqaro Hamkorlik Masalalari. Özbekistan: Taşkent.

<sup>9</sup> Meryem Er. Özbek türkçesi üzerine Türkiye’de yayımlanan çalışmaların bir bibliyografya denemesi. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 6(2), s. 539-564.

<sup>10</sup> Eltazarov, J., Koç, K., Yokubov, İ. (2021). Özbekçe Öğreniyoruz. – İstanbul: Kesit Yayınları

<sup>11</sup> Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. (2019). Özbek Türkçesi Gramer-Metin-Sözlük. – İstanbul: Kesit Yayınları

<sup>12</sup> Üşenmez, E. (2012). Modern Özbek Türkçesi (Giriş-Özbekistan-Dil Tarihi-Metinler-Gramer-Sözlük). – İstanbul: Akademik Kitaplar.

<sup>13</sup> <https://avesis.istanbul.edu.tr/revila.kasgarli/>; <https://avesis.istanbul.edu.tr/mamura.mamatkulova>



o‘qituvchilarning yuqori salohiyatidan dalolat beradi. Aksariyat o‘qituvchilar o‘zbekistonlik vatandoshlar, afg‘onistonlik o‘zbeklar va O‘zbekistonda ta’lim olgan xorijliklardir. Ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi turlicha. O‘qituvchilar orasida nafaqat o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini egallamagan, balki umuman filologik va pedagogik ma’lumotga ega bo‘lmagan holatlar mavjud emas. 2016-yildan buyon Turkiya universitetlarida “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar” bo‘limlarida o‘zbek tilidan dars beruvchi mutaxassislariga ehtiyojning ortishi doktoranturada tahsil olayotgan yordamchi o‘qituvchilarni ham ta’lim jarayoniga jalb qilishni taqozo qilgan. Bu bo‘yicha boshqa tadqiqotlar natijalari bizning kuzatishlarimizni tasdiqlaydi<sup>14</sup>.

Turkiya Respublikasi universitetlarining o‘zbek tili ta’limining metodologik va metodik majmuasi integrativligi bilan ajralib turadi. Zotan, bu Osiyo va Yevropaning eng sara metodikasini mujassamlashtirgan texnologiyaning yetakchilik qilinayotgani bilan uzviy bog‘lanadi. O‘qitish jarayonida fan o‘qituvchilari intensiv, kombinatsiyalashgan usullarni foydalanishadi. O‘zbek tilini o‘qitishda tabiiy til muhitini yaratishga keng e’tibor qaratiladi. Turkiya Respublikasining xorijiy talabalarni jalb qilish bo‘yicha ajratayotgan grantlari asosida Turkiyada tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talaba yoshlar, shuningdek, Turkiyada istiqomat qilayotgan va ishlayotgan o‘zbekistonliklar o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun tabiiy til muhitini yaratishda muhim omil bo‘ladi. O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi va konsulliklari bilan o‘rnatilgan hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlovlar muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda rasmiy bayram qilinadigan sanalar, xalqimiz urf-odatlar bilan bog‘langan muhim sanalar, shoir va yozuvchilar tavallud sanalari elchixona va konsullik bilan hamkorlikda belgilanadi.

O‘zbekiston ta’lim muassasalari va professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlik mustahkamlanayotganligi ham o‘zbek tilini o‘rganish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Birgina Nukus davlat pedagogika instituti va Turkiya universitetlarining Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo‘limlari o‘rtasida 2019 – 2022-yillarda 10dan ortiq seminar, konferensiyalar tashkil qilingan.

Mazkur tadbirlarning aksariyati masofadan tashkil qilinayotganligi, ularda o‘zbek tilini o‘rganayotgan talabalar, magistrantlar, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlar olib borayotgan doktorantlarning faol ishtirok etayotganligi, o‘zbekistonlik olimlar va tengqurlari bilan o‘zbek tilida muloqot qilayotganligi, bu

<sup>14</sup> Şahan Güney Fatma. (2012). Çağdaş Türk Lehçelerinin Öğretiminde Karşılaşılan Sorunlar ve Çözüm Önerileri. IV. Uluslararası Dünya Dili Türkçe Sempozyumu Bildirileri, 22-24 Aralık 2011, Muğla, II. Cilt, Mehmet Naci Önal (Ed.), Ankara, s. 55-62.

muloqotlar ijtimoiy tarmoqlarda davom ettirilayotganligi Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

**Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini samarali o‘qitishga to‘siq bo‘layotgan muammolar.**

Ankara va Istanbul universitetlari misolida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida o‘quv va sinov mashg‘ulotlarini kuzatish, o‘zaro tajriba almashish, shu bilan birgalikda o‘zbek tilidan saboq olayotgan talabalar, magistrantlar, doktorantlarga ma’ruza hamda amaliy darslarni, seminarlarni tashkil qilish, professor-o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan suhbat, intervyulardan, shuningdek, o‘zbek tilini Turkiya universitetlarida o‘qitish masalalariga bag‘ishlangan ayrim maqolalardan ma’lum bo‘ldiki, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda e’tibortalab masalalar bor<sup>15</sup>.

Talabalarning turli yoshda ekanligi (18 – 40), qisman xorijlik talabalar, xususan, o‘zbekistonlik talabalar tahsil olishi, shu bilan birgalikda talabalar kontingentining 98 foizi Turkiya turklari ekanligi, o‘zbek tilining talaffuz va imlo me’yorlarini o‘rgatishdagi qiyinchiliklar ta’limda turli yondashuvlarni taqozo qiladi.

O‘zbek tilida ikkita alifbo amal qilayotganligi bois talabalarning kirill va lotin yozuvi asosidagi alifbolarni baravar o‘rganishi taqozo qilinayotganligini alohida ta’kidlash zarur. Bu to‘g‘ri talaffuz va imloni o‘rgatishda, matnlarni o‘qib tushinishda muayyan qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Bu borada Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida fan o‘qituvchilari jahonda metodikada keng qo‘llaniladigan ta’lim tajribasi metodi<sup>16</sup> yordamida o‘zbek tili unli va undoshlarini Turkiya turkchasiga qiyoslab tajribalar o‘tkazayotganligi, O‘zbek tili unli va undosh tovushlarining lotin yozuvidagi ifodasi va ularning talaffuzida talabalarning ona tili – turk tilining ta’siriga tushishi, yuzaga kelayotgan to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni olg‘a surayotganligini alohida ta’kidlash o‘rinlidir<sup>17</sup>.

<sup>15</sup> Bu haqda qarang: Kashgarli R. **O‘zbek tili ta’limida lotin yozuvli o‘zbek alifbosi bilan bog‘liq muammolar: Turkiya misolida tahlil va takliflar.** //«Turkiy xalqlar folklori ham adabiyati tarixi izartleoini ahmiyetli maseleleri» atamasindag‘i xalqaraliq kolemd online ilimiy-teoriyalik konferensiya, Qaraqalpag‘istan Respublikasi (Nokis), Ozbekstan, 27 – 28 may 2020, B.165 – 174

<sup>16</sup> Czarnocha, B., & Maj, B. (2008). A teaching experiment. In B. Czarnocha (Ed.), Handbook of mathematics teaching research -a tool for teachers- researchers (pp. 47–58). Poland: University of Reszów.

<sup>17</sup> Kashgarli R. **O‘zbek tili ta’limida lotin yozuvli o‘zbek alifbosi bilan bog‘liq muammolar: Turkiya misolida tahlil va takliflar.** «Turkiy xalqlar folklori ham adabiyati tarixi izartleoini ahmiyetli maseleleri» atamasindag‘i xalqaraliq kolemd online ilimiy-teoriyalik konferensiya, Qaraqalpag‘iston Respublikasi (Nukus), Ozbekiston, 27 - 28 may 2020, B.165-174.; Şahan Güney Fatma. (2012). Çağdaş Türk Lehçelerinin Öğretiminde Karşılaşılan Sorunlar ve Çözüm Önerileri. IV. Uluslararası Dünya Dili Türkçe Sempozyumu Bildirileri, 22-24 Aralık 2011, Muğla, II. Cilt, Mehmet Naci Önal (Ed.), Ankara, s. 55-62.; Özdemir Cemal, Arslan Mustafa. (2018). Öğretmen Görüşüne Göre Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretiminde Kazak Öğrencilerin Karşılaştıkları Sorunlar. İdil Dergisi, C. 7, S. 41, s. 15-23. DOI: 10.7816/İdil-07-41-03; Tekin, F. (2008). Özbek Türkçesinin Latin Alfabeti



So‘nggi yillarda xorijliklarga o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha 5 ta darslik, 7 ta o‘quv qo‘llanma, 16 ta uslubiy qo‘llanma, 5 ta o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi dasturlar, multimedia vositalari yaratilgan<sup>18</sup>. Turkiya universitetlarida o‘zbek tilini samarali o‘qitishda talabalarga o‘zbekcha gaplashishni o‘rgatish bo‘yicha adabiyotlar yetishmovchiligi mavjud. Chet elliklar uchun, shu bilan birga qardosh xalqlar uchun o‘zbek tilini o‘rgatishga oid adabiyotlarga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda.

Bugungi kunda ta’lim industriyasi va bozori keng quloch ochib rivojlanmoqda. Birgina ingliz tili misolida aytish mumkinki, bu tilda dunyoning 110dan ortiq davlatida 400 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Bu raqamlar kundan kunga ortib bormoqda. Talab va ehtiyojlar ingliz tilini o‘qitish nazariyasi va metodikasini ham rivojlantirmoqda. O‘zbekistonda ham o‘zbek tilini mamlakatda va xorijda rivojlantirish, nufuzini oshirishga qaratilgan til siyosatining mustahkamlanayotganligi o‘zbek tilini o‘qitish, o‘rgatish ishlarini yangi oqimga solish zaruriyatini paydo qildi.

Turkiyada ham Yevropa, ham Osiyoning til o‘qitish bo‘yicha eng sara metodikasi mujassamlangani holda, uning o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida tatbiq qilinayotganligi O‘zbekistonda til o‘qitish nazariyasi va metodikasining ravnaq topishiga sharoit yaratadi. Turkiy tillarning qondosh-qardoshligidan o‘zgacha yondashuvlar, o‘zgacha usullar, salohiyatli professor-o‘qituvchilar, jahon andozalariga mos metodik ta’minot bo‘lgani holda o‘zbek tilining tashqi muhitda o‘qitilayotgani bois uning samaradorligiga ta’sir qiluvchi muayyan to‘siqlar mavjud. Bu o‘rganuvchilarning o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuz va to‘g‘ri yozish me’yorlarini yetarli egallay olmayotganliklarida yaqqol seziladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aynur O‘z O‘zjon. Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish metodlari. //Globallashuv davrida o‘zbek tilining mavqeyi. Xalqaro konferensiya to‘plami (elektron nashr). – Nukus, 2020. – 17 – 20 b.
2. Buran, Ahmet, Ercan, Alkaya. Çağdaş Türk lehçeleri. 9.baski: Ankara 2013.
3. Dolimov U. Jadid maktablari: ularda ona tili va adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. ped. fan. dok. ... dis. -Toshkent, 2008.
4. Eltazarov, J., Koç, K., Yokubov, İ. (2021). Özbekçe Öğreniyoruz. – İstanbul: Kesit Yayınları

Esasindaki İmlasi Üzerine, Turkish Studies International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 3/6 s. 604-616.

<sup>18</sup> Жамолдинова О. Олий таълимда давлат тили: унинг ўқитилиши, нуфузини ошириш, давлат тилида иш юритиш. Ўзбекистонда олий таълим / 2022 / №4. 8-14 Б.

5. Giray, E. (2019). Türkiye’de Özbek Türkçesi Grameri Üzerine Yapılmış Bilimsel Kitap ve Lisansüstü Çalışmalar (1985-2019). O‘zbek Tili Taraqqiyoti va Xalqaro Hamkorlik Masalalari. Özbekistan: Taşkent.
6. Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. (2019). Özbek Türkçesi GramerMetin-Sözlük. – İstanbul: Kesit Yayınları
7. Kashgarli R. **O‘zbek tili ta’limida lotin yozuvli o‘zbek alifbosi bilan bog‘liq muammolar: Turkiya misolida tahlil va takliflar.** //«Turkiy xalqlar folklorı ham adabiyatı tariyxı izertleo‘iniñ ahmiyetli maseleleri» atamasındag‘ı xalqaralıq kolemda online ilimiy-teoriyalıq konferensiya, Qaraqalpag‘istan Respublikası (Nokis), Ozbekstan, 27 – 28 may 2020, B.165 – 174
8. Meryem Er. Özbek türkçesi üzerine Türkiye’de yayımlanan çalışmaların bir bibliyografya denemesi. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 6(2), s. 539-564.
9. Qorayeva B. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda nutq madaniyatini shakllantirishning nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2021. –130 b.
10. Tekin, F. (2008). Özbek Türkçesinin Latin Alfabesi Esasındaki İmlasi Üzerine, Turkish Studies International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 3/6 s. 604-616.
11. Üşenmez, E. (2012). Modern Özbek Türkçesi (Giriş-Özbekistan-Dil Tarihi-MetinlerGramer-Sözlük). – İstanbul: Akademik Kitaplar.
12. Özdemir Cemal, Arslan Mustafa. (2018). Öğretmen Görüşüne Göre Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretiminde Kazak Öğrencilerin Karşılaştıkları Sorunlar. İdil Dergisi, C. 7, S. 41, s. 15-23. DOI: 10.7816/İdil-07-41-03
13. Şahan Güney Fatma. (2012). Çağdaş Türk Lehçelerinin Öğretiminde Karşılaşılan Sorunlar ve Çözüm Önerileri. IV. Uluslararası Dünya Dili Türkçe Sempozyumu Bildirileri, 22-24 Aralık 2011, Muğla, II. Cilt, Mehmet Naci Önal (Ed.), Ankara, s. 55-62.
14. Czarnocha, B., & Maj, B. (2008). A teaching experiment. In B. Czarnocha (Ed.), Handbook of mathematics teaching research -a tool for teachers- researchers (pp. 47–58). Poland: University of Reszów.
15. Jamoldinova O. Oliy ta’limda davlat tili: uning o‘qitilishi, nufuzini oshirish, davlat tilida ish yuritish. O‘zbekistonda oliy ta’lim / 2022 / №4. 8-14 B.
16. [https://avesis.istanbul.edu.tr/reyila.kasgarli/;](https://avesis.istanbul.edu.tr/reyila.kasgarli/)  
<https://avesis.istanbul.edu.tr/mamura.mamatkulova>
17. <https://yokatlas.yok.gov.tr/lisans-bolum.php?b=10037>
18. <https://www.kariyer.net/bolumler/cagdas%2Bturk%2Blehceleri%2Bve%2Bedebyatlar/i/nedir>